

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Mirzaaxmedova, B.Sh.Shermuhammadov

Xorij tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarda analistik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasining yoritilishi 9

A.A.Tolametov

Umumiy o'rta ta'limga muktablari o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida tadqiqot 15

I.R.Jumaniyazov

Talabada musiqa ta'limi jarayonida kreativ qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish 20

Sh.I.Allamuratov

Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini pedagogik tahlil qilish 24

N.M.O'rino, M.I.Muxammadjonova

Xorijiy ta'limga tyutorlik dasturlarining mohiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari 30

N.M.Merganova

Chet tili darslarida dialogik nutq turi va polilogdan foydalanish 36

A.A.Tolametov, M.M.Baxromov

Kompyuterning inson hayoti va salomatligi uchun ta'siri 40

Y.U.Egamberdiyeva

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisining ochiq qo'shma faoliyatini metodik rivojlantirish texnologiyalari 44

A.Abdulayev, J.Abdullahayev

Jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni bolalar va o'smirlar organizmning funksiyasiga ta'siri 52

Q.Y.Nazirov

Yosh kurashchilarni dastlabki texnik va taktik tayyorlashning uslubiy asoslari 57

T.T.Yusupov

Kurashchhlarning texnik mahoratini oshirish yo'llarini o'rgatish mexanizmlari 61

Б.Б.Хайтбаева, Ф.А.Алижонова

Роль ритмической гимнастики в развитии координации движений у детей с нарушениями развития 64

O.N.Madaminov

Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi 71

S.Muzafarova

Yangi O'zbekiston yoshlari tafakkurini rivojlanishda sharq mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlarining san'at va madaniyat sohasiga doir qarashlarining estetik xususiyatlari 74

N.Sh.Urinova

Boshlang'ich ta'limga ingliz tili fanini o'qitish jarayonida steam texnologiyasidan foydalanishning roli 78

D.D.Boymirzayeva

Bo'lajak ta'limga menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning nazariy jihatlari 83

I.Ikromov

Gimnastika mashqlari komplekslarini tuzish va o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni turli maktabgacha yoshidagilar uchun tuzish metodikasi 87

E.Rahimov

O'zbek xalq qo'shiqlarining yoshlari ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi roli va vazifalari 94

Sh.B.Bekchonova

Kiberpedagogikaning ilk rivojlanish davrlari va hozirgi kunda ta'limga samaradorligini oshirishga ta'siri 98

Z.Y.Xamraqulov

Jinoyat huquqi rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari 101

E.B.Nabiyev

Tarix fanini o'qitishda mustaqil ta'limga topshiriqlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati 107

O.A.Василенко

Профессиональное самосознание педагога - музыканта – хормейстера 111



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK TA'LIM MENEJERLARIDA IJTIMOIY IJODKORLIKNI
SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КРЕАТИВНОСТИ У
БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ ОБРАЗОВАНИЯ**

**THEORETICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF SOCIAL CREATIVITY IN FUTURE
EDUCATIONAL MANAGERS**

Boymirzayeva Dilbar Dmitrievna
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning tashkiliy va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari va ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirish vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning nazariy jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье на основе передового зарубежного опыта изучаются теоретико-методологические основы совершенствования организационно-управленческих механизмов формирования социальной креативности будущих менеджеров образования и задачи формирования социальной креативности будущих менеджеров образования. Также были проанализированы теоретические аспекты формирования социальной креативности у будущих менеджеров образования.

Abstract

In this article, the theoretical and methodological foundations of improving the organizational and management mechanisms for the formation of social creativity in future educational managers and the tasks of forming social creativity in future educational managers are studied based on advanced foreign experiences. Also, theoretical aspects of the formation of social creativity in future educational managers were analyzed.

Kalit so'zlar: tamoyil, mexanizm, takomillashtirish, nazariy-metodologik asos, xalqaro standartlar, akademik, marketing, menejment, integratsiya, prognozlashtirish, globallashuv, funksional, menejer, ijtimoiy ijodkorlik, modernizatsiyalash, avtoritar, liberal-demokratik, ilmiy-tashkiliy, konseptualno-pedagogik, iyerarxik.

Ключевые слова: принцип, механизм, совершенствование, теоретико-методологическая основа, международные стандарты, академический, маркетинг, менеджмент, интеграция, прогнозирование, глобализация, функциональный, менеджер, социальное творчество, модернизация, авторитарный, либерально-демократический, научно-организационный, концептуально-педагогический, иерархический.

Key words: principle, mechanism, improvement, theoretical-methodological basis, international standards, academic, marketing, management, integration, forecasting, globalization, functional, manager, social creativity, modernization, authoritarian, liberal-democratic, scientific-organizational, conceptual-pedagogical, hierarchical.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim muassasasi ichki muhitida boshqaruvning turli bo'g'inlarida samaradorligini baholashda sodda, qulay, egiluvchan uslublar etarli bo'Imaganligi uchun ularga ehtiyoj mavjud. Turli xarakterdagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish va baholashga qaratilgan hamda eng maqbul qarorga kelishni ta'minlaydigan ko'p mezonli kompleks tahlil qilish va baholash usullarini ta'lim muassasalari boshqaruvi jarayonida samarali qo'llash o'zining imkoniyatlari kengligi va istiqbolliligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak ta'lim menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning tashkiliy va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari Ph.Altbach, K.A.Khoon, R.Shukor, O.Hassan, Z.Saleh, A.Hamzah, R.Ismail, N.V.Demidova, S.V.Sulima, S.A.Drujilov, K.I.Morozova, S.D.Reznik, S.M.Vasin, O.A.Sazikina, O.Bichkova, L.Verbitskaya, V.Kasevich,

M.V.Niyazova, V.YE.Varavenko, G.N.Axunova, B.A.Begalov, A.SH.Bekmurodov, S.S.Gulyamov, Sh.N.Zaynudinov, M.A.Ikramov, N.K.Yo'ldoshev, I.U.Majidov, D.X.Nabiiev, R.I.Nurimbetov, B.X.Raximov, D.N.Raximova, R.A.Raxmanbayeva, M.X.Saidov, A.N.Samadov, T.SH.Shodiyev, Sh.D.Ergashxodjayeva, A.T.Yusupov, Sh.Qurbanovlar tomonidan o'rganilgan va tahlil qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshqaruv tuzilma sifatida: boshqaruvchi va boshqariluvchi bo'laklarga ajratiladi. Boshqaruv o'z tasarrufidagi boshqariluvchi bo'lakka muntazam, rejali va maqsadga yo'nalgan tarzdagi ta'sir kuchiga ega. Bunday o'zaro faoliyat tizimning ishchanlik qobiliyatini ta'minlaydi. Boshqaruvdagi tadqiqotlar, kibernetika fani yuzaga kelishi tufayli jadal sur'atlar bilan rivojlanib, murakkab tuzilmani boshqarishning ilmiy asoslangan tavsiyalari amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Boshqaruv bilimlari ko'p jihatdan davr ehtiyojini aks ettiruvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni, bir tomondan, tuzilmaning yaxlitligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi. Shu o'rinda boshqaruvning ikki asosiy funksiyasi farqlanadi: maqsadga yo'naltiruvchi va tashkiliy funksiyalar.

Maqsadga yo'naltiruvchi funksiya tuzilmani yanada mukammallashtirish maqsadiga yo'naltiradi. Tashkiliy funksiya esa tuzilmaning maqsadga erishishdagi ichki tartibi va uning turli qismlari o'tasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlaydi. Yuqoridagi asosiy ikki boshqaruv funksiyasi qator vazifalar orqali amalga oshadi. Masalan, maqsadga yo'naltiruvchi funksiyani ado etishda faoliyat tarkibiga:

- natijani prognozlash;
- maqsad sari faoliyatni rejalash;
- amalga oshirish motivatsiyalari kiradi.

Maqsadga yo'nalgan faoliyatni amalga oshirish esa tashkiliy funksiyalar orqali ta'minlanadi. Bu sohadagi asosiy vazifalardan biri faoliyatni nazorat etish va kuchlarni safarbar etishdir. Umuman olganda nazoratni amalgaoshirish boshqaruvning ikkala funksiyasi uchun ham umumiy bo'lgan universal xususiyat bo'lib, u boshqaruvning har qanday jarayonida doimiy qaytaaloqani ta'minlab turadi. Boshqaruv fanidagi asosiy tushunchalardan biri qaytaaloqa tushunchasi bo'lib, bu ibora tuzilmaning o'z maqsadi sari intilishi qay yo'sinda ketayotgani va qanday jihatlarni o'zgartirish, yanada mukammallashtirish haqida ma'lumot olishni anglatadi.

Oliy ta'limda boshqaruvning maqsadi – talabalarning bilim darajasini oshirish, ularda mazkur bilimlardan amalda foydalanish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Boshqaruv vazifalarini ro'yobga chiqarish turli xil usullar yordamida amalga oshiriladi. Shunday ekan boshqaruvni, ya'ni boshqaruv faoliyatini tashkil etish zaruratini belgilovchi bosh mezon – inson oldiga yoki muassasa oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra, bajaruvchilarni tanlash hamda bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir. Boshqaruv tushunchasi odatda tizimning bir holatdan yanada sifatliroq holatga o'tishi sifatida tavsiflanadi. Bu erda ikki jihatga e'tiborni qaratish lozim. Birinchi jihat tizimni saqlash, uning barqarorligini quvvatlash maqsadida boshqarish (ma'muriy boshqaruv). Ikkinchi jihat tizim yangi sifat holatiga o'tishini, ya'ni muttasil rivojlanishni ta'minlovchi boshqarish. Shuningdek, ta'lim muassasasidagi rahbar-xodimlar boshqaruvning funksional jihatlarini o'zlashtirishi, mehnat unumdarligiga erishish, ishiga mas'uliyat bilan yondashish, jamoani maqsad sari yo'naltiraolish, ta'lim muassasasi boshqaruvini ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirishi, innovatsion yangiliklarni joriy etishi va innovatsion texnologiyalarni boshqaruvda qo'llashni takomillashtirish uchun zaruriy bilim, ko'nikma hamda malakalarga ega bo'lishi zarur hisoblanadi.

Boshqaruv samaradorligi tushunchasi boshqaruv tizimi va boshqaruv jarayoni samaradorliklarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Shy o'rinda boshqaruv tizimi samaradorligi va boshqaruv jarayoni samaradorligi tushunchalarining o'zaro mushtarak va farqli jihatlariga e'tibor qaratamiz. Boshqaruv jarayoni samaradorligi ham boshqaruv samaradorligining xususiy holi bo'lib, uni sub'ektning boshqariluvchi obyektga ta'sir ko'rsatish natijasini ifodalaydi. Uni miqdor va sifat jihatidan baholash mumkin. Ular ta'limning boshqa ta'lim muassasiga nisbatan yuqoriq natjalari ushbu ta'lim muassasida boshqaruv sifati yuqori bo'lishidan har doim ham dalolat beravermaydi. Masalan, ta'lim muassasasi mustahkam moddiy bazaga ega bo'lsa, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari hisobiga o'qituvchilarga boshqa ta'lim

PEDAGOGIKA

muassasasidagiga nisbatan yuqoriqoq ish haki to'lay olsa, ushbu barcha ne'matlardan mahrum bo'lgan oddiy ta'lif muassasasidagiga qaraganda ta'lif sifati yuqoriqbo'lishini ta'minlashi mumkin. Lekin masala har bir ta'lif muassasasi o'zida mavjud imkoniyatlardan nechog'il foydalanayotganligida ko'rindi. Boshqaruv tizimining tashqi samaradorligi jamiyat, davlat va ish beruvchilarning maqsadiga erishuvni nazarda tutadi. Boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash qarorlar qabul qilishning asosiy mezoni hisoblanadi. Shu tufayli iqtisodiyot va boshqaruvda samaradorlik tushunchasiga katta e'tibor qaratiladi. Umuman ta'lif tizimida boshqaruv jarayonida yuqori natijalarga erishish uchun kuzatish, suhbat, modellashtirish, tahlil, sintez, ekspert baholash, ierarxik tahlil usullaridan foydalaniladi. Tavsiya qilingan ta'lif muassasalari boshqaruv jarayoni samaradorligini baholashda ko'p mezonli tahlil usulini qo'llash olyi ta'lif muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari boshqaruvini yangicha usullar bilan boyitadi. Ta'lif muassasalari boshqaruvi samaradorligini baholashda ierarxiyalar tahlili usuli asosidagi yondashuv maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi va boshqaruv jarayonining takomillashuvigaolib keladi. Bu uning ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Ta'lif muassasasidagi boshqaruv jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarga to'xtalib o'tamiz. Boshqaruv jarayoni samaradorligi juda ko'p omillarga bog'liq. Biz ularni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratamiz. O'z-o'zidan ma'lumki, ichki omillar faqatgina talim muassasasining ichki shart-sharoitlari bilan bog'liq. Ularga xodimlar va professor-o'qituvchilarning malakasi, muassasaning moddiy ta'minlanganligi, tashkilot madaniyati kabilalar kiradi. Ta'lif muassasasi boshqaruv samaradorligiga tashqi omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Ushbu omillarga muassasaning joylashgan o'rni, mahalliy boshqaruv organlarining siyosati, ijtimoiy muhit va boshqalar kiradi.

Muassasaga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra ijobiy va salbiy omillarni ajratish mumkin. Ijobiy omillar o'quv muassasining boshqaruv samaradorligining ortishiga xizmat qilsa, salbiy omillar samaradorlikning ijobiy o'zgarishiga to'sqinlik qiladi. Shunday omillar borki, ular istalgan ta'lif muassasining boshqaruv samaradorligiga bir xilda ta'sir qiladi. Bunday universal omillar qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- quyilgan maqsadlarning sifati;

- maqsadlarni real amalga oshirish imkoniyati, ya'ni, ularning qo'yilgan maqsadga erishish

vositalari bilan muvofiq kelishi;

- joriy holatni to'g'ri baholash;

- muassasa rahbari vaxodimlarini qo'yilgan maqsadlar yo'lida motivatsiyalash;

- o'quv muassasasi rahbarining salohiyati va shaxsiy sifatlari;

- qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ajratilgan resurslarning miqdori va sifati;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda davlat va jamiyat hamda kollegial boshqaruv organlarining ishtiroti.

Shuningdek, ta'lif muassasalari boshqaruv tizimida boshqaruv jarayoni to'g'ri yo'lda qo'yilishi, uning samaradorligi tushunchalarini aniq ajratilishi, uning mazmuni va mohiyati ochib berilishi, ta'lif muassasalarida ierarxiyalar tahlili usuli asosidagi kafedrallar reytingi modeli ishlab chiqilishi, uning boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash usullariga asoslanishi ta'lif muassasasi boshqaruv samaradorligini baholashda yuqori natijalarga erishishda ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, boshqaruv samaradorligi, deganda faoliyatning natijaviylikka erishilganligi tushuniladi, ammo samaradorlik darajasini faqat natijaviylik asosida aniqlash murakkab sanaladi. Chunki samaradorlik, deganda boshqaruv faoliyatining umumiy harakati, shuningdek, ma'lum harakatlar natijasida maqsadga erishilganligi tushuniladi. Shuning uchun boshqaruv samaradorligini aniqlashda quyidagilarga ahamiyat berish talab etiladi: boshqaruv maqsadi; boshqarish salohiyati; boshqaruv mehnatining xususiyatlari; boshqaruvga bo'lgan sarf-xarajatlar, boshqaruv vazifalari, ularni tashkil etish texnologiyasi hamda bajariladigan ishlar hajmi va boshqalar kiradi.

XULOSA

Ta'lif muassasasi boshqaruv jarayoni samaradorligini kompleks baholash ko'pgina bozor sub'ektlarida qiziqish uyg'otadi va dolzarbligini yuqorida keltirilgan mulohazalar asoslaysidi. Oliy ta'lif muassasalaridagi boshqaruv jarayonini tashkil etish, uning samaradorligini baholash

usullarini aniqlash, erishilgan amaliy faoliyat natijalari asosida boshqaruv jarayoni samaradorligini baholashni tadqiq qilish va takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shamuratov R. Organization of activities of higher education system and improvement of the management process technologies., Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 8 , Article 70. 2019. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss8/70>
2. Абу Наср Фаробий Фозил одамлар шаҳри. Тошкент. Янги аср авлоди. 2016. -Б 290
3. Ахмедов Б., Аминов А. Амир Темур ўғитлари. -Тошкент.:Наврӯз, 1992. –Б.59
4. Исмаилова З.К, Байбаева М.Х., Раҳбарларнинг низоли вазиятларини ҳал этишдаги самарали бошқарув фаолиятини такомиллаштириш.(Монография) –Тошкент.: Нодирабегим нашриёти. 2019. –Б. 11
5. Кайковус. Қобуснома. -Тошкент.: Ўқитувчи, 2006. –Б.172-174.
6. Манавият асосий тушунчалар ва изоҳли луғати. Ғафур Ғулом НМИУ. Тошкент. 2010. –Б 86.
7. Умаров Б. Психология. -Тошкент.: Ворис-нашириёт. 2012. –Б. 211-212.